

ZAMONAVIY OILALARDA TOTUVLIKNI TA’MINLASH – DAVR TALABI

Negmatova Dilovar Isoqjonovna

SamDU “Sotsiologiya va ijtimoiy ish” kafedrasida o‘qituvchisi (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy oilalarda totuvlikni ta’minlash masalasi ijtimoiy, ma’naviy va madaniy omillar asosida tahlil qilinadi. Oilaviy barqarorlik jamiyat taraqqiyotining negizlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot davomida oilada totuvlikni ta’minlovchi asosiy omillar – o‘zaro hurmat, ma’naviy qadriyatlar, muloqot madaniyati, yoshlarning oilaviy hayotga tayyorgarligi va ota-onalar mas’uliyatining dolzarbligi ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy barqarorlik, oila, zamonaviy oila, oilaviy totuvlik, ota-ona mas’uliyati, yoshlar tarbiyasi.

ОБЕСПЕЧЕНИЕ ГАРМОНИИ В СОВРЕМЕННЫХ СЕМЬЯХ - ТРЕБОВАНИЕ ВРЕМЕНИ

Аннотация. В данной статье анализируется проблема обеспечения гармонии в современных семьях на основе социальных, духовных и культурных факторов. Семейная стабильность рассматривается как одна из основ развития общества. В ходе исследования рассматриваются основные факторы, обеспечивающие гармонию в семье: взаимное уважение, духовные ценности, культура общения, подготовленность молодежи к семейной жизни и актуальность родительской ответственности.

Ключевые слова: социальная стабильность, семья, современная семья, семейная гармония, ответственность родителей, воспитание молодежи.

ENSURING HARMONY IN MODERN FAMILIES - A DEMAND OF OUR TIME

Abstract. This article analyzes the issue of ensuring harmony in modern families based on social, spiritual, and cultural factors. Family stability is considered one of the foundations of societal development. The study examines the main factors that ensure harmony in the family - mutual respect, spiritual values, communication culture, the preparedness of young people for family life, and the importance of parental

responsibility.

Key words: social stability, family, modern family, family harmony, parental responsibility, youth upbringing.

Ma'lumki, mahalla oilalar ittifoqidan tashkil topgan fuqarolik jamiyatining asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Darhaqiqat, fuqarolik jamiyatining quyi bo'g'ini bo'lgan mahallaning eng asosiy bo'g'ini bu oila institutidir. Shu nuqtayi nazardan oilaning ijtimoiy, iqtisodiy va, albatta, ma'naviy holati, uning shakllanish strukturasi fuqarolik jamiyati rivojlanishining muhim bo'g'ini bo'lib xizmat qiladi. Bugungi kunda mamlakatimizni barqaror rivojlantirish, xalqimiz farovonligini oshirish, fuqarolarning o'z hayotidan rozi bo'lib, ertangi kuniga ishonch bilan munosib hayot keshirishini ta'minlash bo'yicha qo'yilgan maqsad va vazifalarni izchil amalga oshirishda oila institutining o'rnini va roli tobora ortib borayotganligi bejiz emas. Oilaning tinch va mustahkam, farovon bo'lishi unda tarbiyalanayotgan yosh avlodning ma'naviy sog'lom, yetuk va komil inson bo'lib tarbiyalanishiga asos bo'ladi.

Mustaqillik yillarida oilalarning ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va ma'naviy manfaatlarining himoya qilinishi va bu sohada amalga oshirilgan ishlar oila masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligidan dalolatdir. Ammo shunga qaramay, yildan yilga o'sib borayotgan oilaviy ajrimlar bu borada davlatimiz amalga oshirayotgan ishlarga soya solmoqda [1;48]. Chunki, mamlakat taraqqiyoti mahallalar va oilalar o'rtasidagi jipslikni ta'minlashga bog'liqdir. Qaysi oila va mahalla o'rtasida tinchlik hukmron bo'lsa, o'sha maskanda ijtimoiy hayotning barcha sohalari rivojlanadi.

Boy ilmiy-madaniy merosimiz, qadimiy urf-odat hamda an'analarimizdan ayonki, har qanday zamon va makonda biz uchun oila muqaddas qadriyat sanalgan. Binobarin, tarbiyaviy, ma'naviy-ma'rifiy, ruhiy-axloqiy, iqtisodiy-huquqiy munosabatlarga asoslangan ijtimoiy birlik hisoblanmish oila qanchalik mustahkam bo'lsa, jamiyat ham shunchalik barqaror taraqqiy etishini ajdodlarimiz juda yaxshi anglashgan.

Oilalarda ahillikni ta'minlashning bir qator asoslari mavjud. Biz buni shartli ravishda quyidagicha tasniflashga harakat qilamiz:

Ma'naviy asos – oila ma'naviy hayotida o'zaro munosabatlarning mehr-oqibat, mehribonlik, g'amxo'rlik, o'zaro ishonch kabi axloqiy tamoyillarga tayanilganligi;

Iqtisodiy asos – oilaning moddiy ta'minotini izchil yo'lga qo'yilganligi yashash uchun kerakli bo'lgan resurslar bilan ta'minlanganligi;

Huquqiy asos – oila a'zolarining teng huquqliligi, adolat, so'z erkinligi va ixtiyor erkinligi kabi axloqiy tamoyillarning huquq darajasida qabul qilinganligi;

Ijtimoiy asos – mahallalarda istiqomat qiluvchi har bir oila a’zolarining o‘zaro munosabatlari, ijtimoiy mavqeyi, ularning oiladagi ijtimoiy vazifalarini to‘g‘ri tashkil etilganligidir.

Tabiiyki, mahalla va oilada mazkur asoslar qanchalik izchil yo‘lga qo‘yilsa tinchlik va barqarorlik shunchalik mustahkam bo‘ladi. O‘z o‘zidan ma’lumki, ushbu asoslarning yaratilishi va mahalla hayotida tinchlikning saqlanishida oila institutining o‘rni va ahamiyati beqiyos. Xususan, oilaning ma’naviy-ijtimoiy hayotida ijobiy muhit shakllanishi nuqtayi nazaridan ham buni e’tirof etish lozim. Ma’lumki, mahallalar tarkiban oilalardan iborat. Mana shu oilalarning tinchlik-xotirjamligini ta’minlash, yoshlarni shu mahalla va oila sha’ni uchun kurashuvchi diyonatli insonlar qilib tarbiyalash kabi muhim vazifalar ham mahalla orqali amalga oshadi. Mahallalarda bugungi kunda oilalarga ma’naviy, moddiy, ijtimoiy tomondan ko‘maklashib, yordamga muhtoj, boquvchisini yo‘qotgan, nogironligi bo‘lgan, yolg‘iz ayollar va ehtiyojmand oilalarni temir daftarga kiritib ularning ijtimoiy ahvolini yaxshilashda mahalla amaliy yordam berib kelmoqda.

Yangi O‘zbekistonning yangi bir islohoti amalga oshirildi. Jumladan, mamlakatimiz hududida mahalla asrlar osha takomillashib, sayqallashib obod maskanlardan biriga aylandi. O‘zbekiston tarixini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, mamlakatimiz hududida uzoq vaqtdan buyon yashab kelayotgan oilalar o‘rtasida totuvlikni ta’minlashda mahalla institutining roli oshib borayotganligidan darak beradi. Ayrim holda oilalarda ma’naviy tarbiyaning sustligidan, kitob savodxonligining pastligidan, ota-onalarning farzandlari tarbiyasiga nisbatan loqayd, befarqligi natijasida oilalar inqirozga yuz tutmoqda. Sabab hozirda G‘arb mamlakatlarida oilaviy inqirozlarining sodir bo‘layotganligi va globallashuv hodisalari o‘zbek oilalariga salbiy ta’sir qilmoqda.

Salbiy illatlarning oldini olish maqsadida mahallada yarashtiruv komissiyasi tuzildi. Bugungi kunga kelib mahalla faollari va yarashtiruv komissiyasi bilan birgalikda oilalardagi ajrimlar sonini bir muncha qisqartirishga erishdilar. Yuksak ma’naviyatga asoslangan o‘zbek oilalari ajdodlaridan qolgan ma’naviy merosni avaylab kelajak avlodga yetkazib berish tamoyillari asosida Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasida milliy hamjihatlikni qaror toptirmoqda.

Oila-inson tafakkurining oliy mahsuli. Bu mo‘jaz maskan umrimizga mazmun, hayotimizga fayz beribgina qolmay, jamiyat ravnaqi, yurt taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Oiladagi totuvlik esa kishining ong-u shuurida hayotga muhabbat, kasbga sadoqat, atrofdegilarga nisbatan hurmat va e’tibor singari yuksak insoniy fazilatlarini

ham shakllantiradi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Biz uchun muqaddas bo‘lgan oila asoslarini yanada mustahkamlash, xonadonlarda tinchlik-xotirjamlik, ahillik va o‘zaro hurmat muhitini yaratish, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni aniq mazmun bilan to‘ldirishdan iborat bo‘lmog‘i zarur. Ayollar o‘rtasida jinoyatchilik, oilalarda ajralishlar ko‘raygani, yoshlarning turli diniy-ekstremistik oqimlar va terroristik tashkilotlar ta’siriga tushishi kabi xalqimizga xos bo‘lmagan achchiq va noxush masalalar bilan bog‘liq” [2;104].

Shu bilan birga, ushbu sohada davlat siyosatini muvaffaqiyatli olib borishni to‘xtatib turuvchi bir qator tizimli muammo va kamchiliklar oila institutini mustahkamlash sohasidagi islohotlarni to‘liq ro‘yobga chiqarishga va belgilangan maqsadlarga erishishga to‘sqinlik qilmoqda. Chunonshi:

- birinchidan, tegishli idora va tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish hamda monitoring qilishning ta’sirchan tizimi mavjud emas, oilani rivojlantirish masalalari bo‘yicha davlat, fuqarolik jamiyati institutlari va xususiy sektor hamkorligi past darajada;

- ikkinchidan, oila institutini mustahkamlash sohasidagi ilmiy tadqiqotlar ixtisosligi tor, hozirgi hayot voqeligidan uzilib qolgan, ilmiy tadqiqotlar natijalari amaliyotga sust joriy etilmoqda;

- uchinchidan, oilaning demografik rivojlanishida o‘zgarishlar yuz bermoqda, mazkur sohada salbiy tendensiyalar va muammolar sabablarini asoslovchi tadqiqotlar yetishmayapti;

- to‘rtinchidan, oilada, ta’lim muassasalarida madaniy-tarixiy meros salohiyatidan sust foydalanilmoqda, milliy mentalitetimizga yot bo‘lgan g‘oya va qarashlar ta’sirining oldini olish borasidagi ishlar samarasiz;

- beshinchidan, oila institutini mustahkamlashning qonunchilik asoslari mukammal emas, huquqni qo‘llash amaliyotini va ilg‘or xorij amaliyotini o‘rganish asosida oilani himoya qilish va qo‘llab-quvvatlash sohasida mustahkam huquqiy asos mavjud emas;

- oltinchidan, mutaxassislar yetishmaydi va kadrlar malakasi past darajada, ta’lim tizimida mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyojni prognozlashtirish mexanizmi yo‘lga qo‘yilmagan, oila institutini mustahkamlash va rivojlantirish bo‘yicha o‘quv dasturlari mukammal emas.



Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Эрайгитова Л.Қ. Оилавий ажримлар: муаммо ва ечимлар. “Сурхон-нашр” - 2021. 48-бет.
2. Мирзиёев Ш. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 104 б.
3. Ризаев И. И., Хаккулов Н. К. Влияние цифровой культуры на неприкосновенность жизни человека в обществе //Оргкомитет. – 2023. – С. 342.
4. Рўзимуродов С. М. Оилада соғлом муҳит - обод турмушнинг маънавий асосидир // Имом Бухорий сабоқлари, 2018.- №3.-Б. 79-81.